

SHASHMAQOMDAGI AVJLAR VA “ZEBO PARI AVJ”NING YARALISHI.

*Isaqov Abrorbek Odiljon o‘g‘li**Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa
san’ati instituti “Maqom xonandaligi”
kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy maqom san’atida Shashmaqomdagi avjlar hamda “Avj Zebo pari”ni qanday yaralganligi to‘g‘risida batafsil yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Kuy, ohang, Xudoyberdi, “Avji zebo pari” Ovoz ko‘lami, ijro mahorati va ohang, musiqiy fikr, musiqiy jumla.

Аннотация: В данной статье подробно описано развитие Шашимакома в узбекском национальном искусстве и то, как создавался «Авджи Зебо Пари».

Ключевые слова: Мелодия, мелодия, Худойберди, «Авджи зебо пари»
Голосовой диапазон, исполнительское мастерство и тембр, музыкальная идея, музыкальное предложение.

Annotation: This article provides a detailed description of the climaxes in Shashmaqom in the Uzbek national maqom art and how the "Avji Zebo Pari" was created.

Key words: Melody, melody, Khudoyberdi, "Avji zebo pari" Voice range, performance skills and melody, musical idea, musical phrase.

Musiqiy merosimizdan joy olgan bebaho namunalari asrlar osha ijro etilib, avlodan-avlodga o‘tib, sayqallanib kelmoqda. Xalqimizning bu boy va murakkab musiqiy merosi azaldan ustoz san’atkorlar tomonidan og‘zaki uslubda yaratilib, ustozdan shogirdga o‘tib, an’ana tarzda ijro etilib bizgacha yetib kelgan. Xalq musiqa san’ati boy va serqirra. Albatta, xalqona urf-odatlariga asoslangan musiqiy madaniyat o‘z-o‘zidan turmush tarziga aylangan va muttasil davom etib kelgan. Ma’naviyat darajasi va uning ravnaqi ijodiyot mahsuli bilan o‘lchanadi. Qayerda ijodiyot kerakli me’yorda mavjud ekan, bu jarayon milliy an’analarga asoslanar ekan, u yerda hayotimizga xos va zamonaga mos rivoj bor. Mumtoz musiqamiz amaliyoti va ravnaqiga nazar solar ekanmiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlodi ekanligimizni ko‘ramiz. Biz o‘tmishda yaratilgan merosni o‘qib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib o‘zlashtirsak, zamonaga munosib bo‘lib yetishishimiz mumkin. Bundan tashqari ushbu buyuk merosni bizgacha yetib kelishida fidoiylik qilib, ularni ko‘z qorachig‘iday asrab avaylab yashagan, o‘z iste’dodi va go‘zal san’ati bilan milliy merosimizning mukammallashishiga o‘zining xissasini qo‘shgan san’atkorlar xaqida bilish, o‘rganish

(3rd international scientific and practical conference)

va izlanish burchimizdir. Ana shunday insonlardan biri **Xudoyberdi Xudoyor o'g'li** bo'lib, u XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida yashab ijod etgan mashhur hofiz, Buxoro, hamda Fargona maqom ijrochilik maktabini mukammal bilgan buyuk shaxsdir. Biz uning asl ismidan ko'ra tahallusini ko'p eshitganmiz, ya'ni **"Zebo pari"**. U o'z zamonasining yetuk san'at namoyandalaridan biri bo'lib, tarixda yorqin iz qoldirgan san'atkordir.

¹Xudoyberdi hofiz 1828-1908 yillar oralig'ida yashab ujud etgan. Xudoyberdi hofiz ulug' ustozlardan ko'p maqomlarni o'rganadi va ularni tahlil qilishni, xalq ashulalariga maqomlardan namudlarni qo'shib o'ziga xos ijro qilish uslubini yaratadi.

²Kunlarning birida ustoz Qori Karomat Dilkash Xudoyberdini xalq ashulalariga maqomlardagi namudlarni topib ularni omuxta qilganini eshitib hayratda qolib shunday degan ekan:

- Men bu ijrolaringni boshqalardan eshitgan edim, ammo unchalik ishonmagan edim. Hozirgina bunga amin bo'ldim! Ana endi vaqti kelibdi deb o'ylayman. Shashmaqomda namudi "avji turk" mavjud, ba'zida uni xalq ashulalariga qo'yib ijro qilsa bo'ladi. Bu murakkab avjni ustoz Navruz ali 300 yil oldin kashf etgan. Bu avj juda murakkab bo'lib, har qanday hofizning ovozi bunga yetmaydi. Mana shu "Avji Turk"ni senga o'rgataman. Bunga sening ovozing bemalol yetib, ortib ham qoladi. In sha Alloh buni tez o'zlashtirib, Yanada sayqal berasan, bunga men ishonaman deb aytadi .

Shu o'rinda Xudoyberdi hofizning musiqa ilmiga qo'shgan hissasini alohida sanab o'tishni joiz deb bildik:

1) Zebo pari ilova pardalari. Tanbur dastasining poyoniga bog'lanadi. Bu Zebo parining ixtirosi bo'lib, san'at ahli orasida bu "Zebo parda" deb nom olgan.

2) Ashulaning katta avj pardalariga Yana boshqa avj ilova qilish. Bu ham Zebo parining kashfiyoti bo'lib, bu avj "Avji Zebo pari" nomi bilan mashhurdir. "Avji Zebo pari" hofizdan yuksak iste'dod va mahoratni talab qiladi.

³Qo'qon va Isfaraning orasi juda yaqin bo'lganligi sabali, urf odatlari, yashash tarzlari ham juda bir-biriga o'xshash bo'lgan. Odatda Qo'qonda yoki Isfarada to'y xashamlar bo'lsa bazmu-jamshidlar o'tkazilsa Isfaradan ham albatta san'atkorlar taklif qilinardi. Isfaraning ham o'ziga xos ashulachilik maktabi bo'lgan. Mashhur hofizlardan Zebo pari, Abduqahhor, Mirzocha, Umar hofizlar yetishib chiqqan. Qo'qon xoni Xudoyorxon imom Rabboniyni o'ziga "Pir" hamda "Yo'l boshchi" deb intixob qilgan. Shu bois Xon uning Qoqondagi Farzandlariga ehtirom bilan munosabat ko'rsatgan. Imom Rabboniyning farzandlari Miyonqudrat, Miyonsubhon,

¹. O.Matyoqubov "Maqomot" "Musiqqa nashriyoti" Toshkent 2004-yil. 368-bet

². N.Pirmatova "Zebo pari" "Fan ziyosi nashriyoti" Toshkent 2022-yil. 28-bet

³. N.Pirmatova "Zebo pari" "Fan ziyosi nashriyoti" Toshkent 2022-yil. 46-bet

Miyonshukrxonlar Qoqonning Mo'yi Muborak mavzesida istiqomat qilishar edi. Xon ularga doim marhamat ko'rsatar, to'y xashamlar qilishsa albatta sovg'a salomlari bilan tashrif buyurardi. Mana shunday to'ylarning biriga Xon o'zining hofizi bilan, tashrif buyuradi. To'yga Isfaradan ham bir guruh san'atkorlar taklif qilingan edi. Ularning orasida Zebo parining jiyani Umar hofiz ham tashrif buyurgandi. Umar hofiz Isfarada tug'lib o'sha yerda yashab ijod qilgan. U ham bobosi va tog'asi singari juda mohir hofiz bo'lib ustoz maqomiga erishgan. O'sha davrda to'ylarda, bazmu jamshidlarda hofizlar ko'p yig'lishsa bunday kechalarda albatta musobaqaga aylanib ketar edi. O'sha kuni Isfaralik hofizlarga ham navbat yetib keldi, ammo ular boshlamasdan xurmat bilan ustozni kutishardi.

Shu payt davraga Umar Hofiz kirib keladi va Isfaralik hofizlar bilan birgalikda duoga qo'l ochadi. Shundan keyin Umar hofizning o'zi ashulani boshlaydi. Zebo pari bunday ijroni eshitib hayron qoladi, chunki uning ovozi va ijro uslubi Zebo parining ovozigacha juda o'xshar edi. Zebo pari jiyani Umarning hofiz bo'lganini birinchi bor ko'rib turishi edi. Zebo pari juda hayajonda edi, chunki to'yda hofizlar juda ko'p va u jiyanidan xavotirda bo'ladi. Umar murakkab ashulani boshlaydi. Zebo pari "ishqilib avjlarini eson omon aytib olsinda" deb havotirda bo'ladi. Umar hofiz ashulani tugatadi. Ketidan ikkinchi ashulasini ulaydi. Endi Zebo parining yuragi bir xil ura boshlaydi. Andak xotirjam ham bo'ladi. Ashula nihoyasiga yetgach Zebo pari Umar hofizning yoniga yaqinlashib u bilan ko'rishadi. Hamma bu manzarani ko'rib hayron bo'lib qoladi. Shunda Zebo pari jiyanining yelkasiga qo'lini qo'yib, hammaga uni jiyani ekanligini e'lon qiladi. Hatto Zebo pari ham Umarning ovozini ilk bor eshitayotganini mehmonlarga gapirib beradi. Bu holat hammaga qiziq edi. To'satdan mehmonlar Zebo pari va Umarni birgalikda, hamnafas bo'lib ijro qilishlarini so'rashadi.

Zebo pari jiyaniga qarab: "Qani umidli hofiz, tanburni ol, uni yaxshi ozlashtiribsan. Menga dutorni ber. Bu xalqning istagi, hayajonlanma" deydi, tabassum qilib. Avval "Segoh"ni va "Nasrullovi"ni aytib keyin "Qalandar I va II"ni ijro qilamiz deb boshlashadi. Bu ijrolar xalq uchun yangilik edi. Ularning ovozi shunchalar o'xshash ediki, ularni uzoqdan eshitgan odam ashulani bir kishi ijro etayapti deb o'ylardi. Katta avji kelganida Zebo pari o'zining avjlarini qo'shib ijro etmoqchi ham bo'ladi, ammo keyin o'ylaydi: "bunga Umarning ovozi yetmay qolsa uyalib qoladiku, keyin ruhi tushib ketadi" deb ashulani qanday bo'lsa shundayligicha ijro qiladi. Axir Umar uning tug'ishgan jiyanida. Ulardan keyin hech bir hofizning davraga tushishga xaddi sig'maydi.

Zebo parining dong'i butun vodiya tarqalgan edi. Uni Andijon, Marg'ilon, Fargona va boshqa shaharlardan hokimlaru amaldorlar o'z shaharlariga uni eshitish uchun taklif qilishardi. Zebo pari Xudoyorxonning ijozati bilan maxsus soqchilar bilan bunday kechalarda qatnashar edi. Zebo pari ko'p yillar Xudoyorxonning saroyida

sadoqat bilan uning xizmatini qiladi. Kunlarning birida xon uni uzoq yillar davomidagi xizmatlari uchun taqdirlamoqchi bo'ladi va o'zidan so'raydi:

“Shuncha yillardan beri meni, qolaversa xalqimizning xizmatida o'z san'ating bilan hammani xushnud etib kelyapsan. Ayt nima qilsam bizdan rozi va xursand bo'lasan?” Zebo pari juda xijolat bo'lib, deydi:

“Olampanoh, himmatingizning cheki yo'q! Mening o'zimga hech narsa kerak emas, ammo bir o'tinchim bor. Tug'ilib o'sgan qishlog'im “Yag'mogar”lar talon-tarojidan keyin ancha vayronaga aylanib qolgan. Agar marhamat qilsangiz Qalchai Boboshayx qishlogimizni obod qilsam deyman. Bu mening farzandlik burchim”. Xudoyorxon mamnuniyat bilan Zebo pariga zar to'n kiydirib, darhol qishlog'ini obod qilishi to'g'risida farmon beradi. Saroyda hamma mulozimlar uni muborakbod etishadi. Xon unga bor yo'g'i uch kunga borib kelishi uchun ruxsat beradi. Shu uch kun ichida Zebo pari qishlog'iga borib, otasini, oilasini, qishloqdoshlarini ko'rishi va albatta qishloqni qayta ta'mirlash uchun ishlarni yo'lga qo'yib kelishi lozim edi. Fursat oz bo'lsada, Zebo pari juda baxtiyor edi. Qishloqqa kelgach uni ko'rgani barcha qishlodoshlari jam bo'lishadi. Otasi qo'y so'yib, xalqqa osh beradi.

Bu marosim bazmga aylanib ketadi. Isfaraning yetuk hofizlari biri qo'yib biri ashula aytishadi. Bazmdan keyin Zebo pari hammaga Xon farmonini o'qib eshittiradi. Bu xabar kutilmaganda aytilgani uchun xalq Zebo paridan juda xursand bo'ladi va xammalari duoga qo'l ochib uni duo qiladilar. Bu xayirli ishi uchun, xondan xomiylik qilishini so'ragani uchun Zebo parining o'zi ham juda baxtiyor edi. U qishloq oqsoqollari va otasi bilan eng avvalo, qishloq guzarlarini, machitlarini, bozorlarini va boshqa vayron bo'lgan joylarni obod qilishlarini maslahatlashib oladi. Vaqt o'tishi bilan jiyani Umar hofiz ham sekin asta kuchli, moxir ustozga aylanadi. Uning ham dovrug'i Qo'qon xonligi, Andijon, Fargona, hattoki Qashg'argacha yetib boradi. Isfarada yilda bir marta bahor faslida “Lola sayri” o'tkaziladi. Bir gal Zebopari Qo'qondan Isfaraga shu bayramga tashrif buyuradi. Uning bu tashrifi butun shaharga nur va fayz baxsh etgandi. Bayramda Shodiy Oxun, Xudoyor ota, do'sti Toshmuhammad, Zebo pari, Xoji Muhyi, Xoji Ma'ruf va Abduqaxxorlar ishtirok etadilar. Hamma hofizlar birma-bir ashulalar ijro qilishadi. Navbat Umar hofizga yetib keladi. Endi u katta ustoz edi. Ovozi juda ochilgan payti, o'ziga ishonchi baland, talaffuslari burro, ruhini baland qilib ijro etar edi. Uning ijrolarini eshitib, Zebo pari juda baxtli va xotirjam bo'lardi. Zebo parining ham yoshi bir joyga yetib qolgan edi. Endi u o'ziga o'rinbosar borligidan, yo'lining davomchisi borligidan xotirjam edi. Bayramning oxirida Zebo pari va Umar hofiz birgalikda ashula aytishadi. Zebo pari yangi g'azal bilan aytiladigan, ashulani boshlaydi. Bu g'azalni Umar hofiz bilmasdi, faqat tanburda jo'r bo'lib turardi.

Darxaqiqat, Zebo pari ashula maydonida misli she'rdir. Ashula tugaganidan keyin, Zebo pari jiyani Umarni quchoqlab peshonasidan o'pib, bir lahza sukut saqladi.

(3rd international scientific and practical conference)

Shundan keyin Zebo pari egnidan choponini yechdida Umar hofizga kiydirdi. Umar hofiz hayratdan ko'z oldi qorong'ilashib, hech nimani ko'rmasdi. Uning uchun bu sovg'a, dunyodagi eng qimmatbaho hadya edida. Ko'zlaridan beixtiyor quvonch ko'z yoshlari oqar edi. Zebo pari unga xalq oldida oq fотиha berdi.

⁴1876 yilda Chor Rossiyasi Qoqon xonligini bosib oladi va Chor Rossiya tasarrufiga o'tadi. Xonlik tugatilib, Turkiston general gubernatoriga aylantirildi. Xalqning boshiga og'ir kunlar tushadi. Chor Rossiya bechora xalqqa, y'ani har bir xonadonga ot va mablag' solig'ini soladi. Xalq qiyinchilik bilan hayotguzaronlik qilardi, ammo ularning shartlarini bajarish nihoyatda mushkul bo'lib ular bu shartlarni bajara olmas edilar. Xalqning noroziligi tobora kuchayib borardi. Qo'qon xoni Xudoyorxon Chor Rossiyasi bilan sulx tuzib o'zi siyosatdan chetlanadi. Mana shunday talvasali zamonda, Zebo pari o'z qishlog'i Qalchai Boboshayxga, oilasi bag'riga qaytib keladi va umrining oxirigacha o'z qishlog'ida yashab ijod etadi. Ancha vaqtdan keyin Zebo pari bemor bo'lib to'shakda yotib qoladi. Har doimgidek do'sti, ham ustoz Toshmuhammad naychi uning yonida bo'ladi. Uning ko'nglini shod etish uchun unga nayda har xil kuylar chalib berardi. Uni bolalik chog'lariga qaytarar edi. U umri oxirlab borayotganini sezib, hamma farzandlarini, nevaralarini, shogirdlarini, do'stlarini xayrxo'sh qilgani chaqiradi. Rozi rizoliklarini olib, birozdan so'ng bandalikni bajo keltiradi. Zebo pari do'sti Toshmuhammadga vasiyat qilganidek, u qabristongacha naychalib boradi va Zebo pari istaganidek uni qizil tog'ning tagiga qo'yishadi. Zebo parining yettita farzandlari bo'lgan. Bular Bobosharif, Bobojon, Egamberdi, Rahimberdi, Rahmonberdi, Xoliqberdi, G'oyiberdi. Zebo parini so'ngi manzilga farzandlari, do'stlari va butun qishloq ahli kuzatgani chiqqan edi. Mashhur hofiz Zebo pari tobuti suv ustida suzganidek oqib borardi. Zebo parining zebo siymosi, insoniy fazilatlarini, san'ati va ijod qilgan "zebo pardalari" yu "avji Zebo pari"lari aziz xalqimiz qalbida to'abadi boqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., Fan, 1993.
2. O.Matyoqubov, "Maqomot" Toshkent-2004
3. N.Pirmatova, "Zebo pari", Toshkent-2022
4. I.Rajabov, "Maqomlar masalasiga doir", Toshkent-1963
5. Kavkabi Najmiddin. Risolai musiqi. Risola dar bayoni Duvozdahmaqom. Tahiya, tahqiq va tavezhot ba qalami Asqarali Rajabov. Dushanbe, Irfon, 1985, (Kulliyot mazmunin ozbek tiliga o'girishda Ismoil Bekjon tarjimasidan erkin foydalandik.)

⁴ N.Pirmatova "Zebo pari" "Fan ziyosi nashriyoti" Toshkent 2022-yil. 50-bet